



IN SCHOOLS OF GENERAL SECONDARY EDUCATION THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF TEACHING FINE ARTS

Eshimova Shakhzoda

Student of Karshi State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14024660>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2024

Accepted: 30th October 2024

Online: 31th October 2024

KEYWORDS

Aesthetic idea, competence, didactic system of competence formation, creative thinking, ethical abilities, advanced methods of teaching while preserving the traditions of "Master-student" and artistic education, artistic analysis, painting, graphics, sculpture, artist's tools, lines and shapes, etc.

ABSTRACT

In this article, recommendations are given on the processes of teaching students of visual arts and their mastery. It is expressed that the science of fine arts serves to develop their worldviews and artistic aesthetic ideas. On the basis of the development of educational competencies related to visual literacy in students, their features related to vision perception and memory are shown.

UMUMIY O`RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O`QITISHNING O`RNI VA AHAMIYATI

Eshimova Shaxzoda

Qarshi davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14024660>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2024

Accepted: 30th October 2024

Online: 31th October 2024

KEYWORDS

Estetik g`oya, kompetensiya, kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik tizimi, ijodiy fikrlash, etik qobiliyatlar, "Ustoz-shogird" va badiiy ta'lim an'alarini saqlagan holda o`qitishning ilg'or usullari, badiiy tahlil, rangtasvir, grafika,

ABSTRACT

Ushbu maqolada, tasviriy san'at fanining maktab o`quvchilariga o`qitish jarayonlari, ularning o`zlashtirishlari bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tasviriy san'at fani ularning dunyoqarashlari va badiiy estetik g`oyalarini rivojlantirish uchun xizmat qilishi ifodalangan. O`quvchilarda tasviriy savodxonlikka oid o`quv kompetensiyalarini rivojlantirish negizida ularning ko`rish, idrok etish va xotirada saqlash bilan bog`liq bo`lgan xususiyatlari ko`rsatilgan.



*haykaltaroshlik, rassomning
ish qurollari, chiziqlar va
shakllar, va h.k.*

Bilamizki, tasviriy san'at insoniyatni mehnat qilishga, aql-zakovatini rivojlantirishga, ijodiy tafakkur qilishga, go'zallikni his qilib unga intilishga o'rgatib, uning go'zal hamda chiroyli ma'naviy dunyosini yaratib kelmoqda. Hozirgi kunda tasviriy san'at jamiyat va undar yashaydigan insonlar uchun yuksak aql-idrok, ilg'or bilim va salohiyat, chiroyli turmush tarzi hamda kuchli intilish shakllantirishi barchamizga ma'lum. Shuningdek, bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, tasviriy san'at fani o'quvchi yoshlarga faqatgina ilm-tafakkur, go'zal estetik g'oya va fikrlar beribgina qolmay, inson uchun eng muhim hisoblangan jihatlarini, ya'ni uning kuzatishini, ko'rishini, idrok qilishini hamda tafakkuri va tasavvurini rivojlantiradigan asosiy vosita ekanligini isbotlamoqda. Tasviriy san'at fani o'quvchilar uchun zarur bo'lgan badiiy estetik madaniyatga ega bo'lgan bilim va malakalar beruvchi omildir. Negaki, inson kelajakda qanday sohada ishlashidan qat'iy nazar san'at go'zalliklaridan bahramand bo'lishi lozim ish vaqtida sarflagan kuch-quvvatini tiklashi uchun u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlaridan bahramand bo'lishi bilan birgalikda muzeylar, ko'rgazmalar va boshqa ma'rifat maskanlarida ijod namunalari bilan tanishishi, ularni idrok etishi, his qilishi va ulardan zavqlanishi orqali o'zi uchun kerak bo'lgan ma'naviy ozuqalarni oladi. Tasviriy san'at ta'limi jarayonini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki har qanday o'quvchida rasm chizishga ishtiyoqi bo'lishi kuzatiladi. Rasm chizish nafaqat rassomlar, ijodkorlar, dizaynerlar uchun emas, balki agronom, quruvchi, tibbiyot xodimlari, harbiylar, olimlar, o'qituvchilar uchun ham zarurdir. Negaki, ular o'z faoliyatlari davomida rasm, sxemalar, chizmalar, diagrammalar, eskizlar, ko'rgazmali qurollar orqali so'z bilan tushuntirib berish mumkin bo'lmagan g'oya, fikr, loyihalarini ko'rsatib tushuntirishga harakat qiladilar.

Tasviriy san'at fanining o'quvchilar ta'lim - tarbiyasidagi o'rnining beqiyos ekanligini korsatib o'tish o'rinli bo'ladi. Ushbu fan, o'quvchilarga eng qiziqarli san'at shakllarini o'rganish, ularni ijodiy fikrlash hamda shoirlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. O'quvchilar ushbu fanni o'zlashtirishlari jarayonida o'z fikr-mulohazalarini ifodalash, ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishlari mumkin. Tasviriy san'at fanining o'quvchilar ta'lim tarbiyasidagi o'rnini, ularni ijodiy bo'limga kirishiga ya'ni badiiy tahlil qilishlari uchun asos bo'ladi.

Tasviriy san'at fanining maktab o'quvchilarini o'qitishda eng avvalo tasviriy san'at turlari: rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, rassomning ish qurollari, chiziqlar va shakllar, bo'yoqlar, ranglar hamda ularning qay tartibda qo'llanishi haqida boshlang'ich ma'lumot keltirilmagan. O'quvchilar bu ma'lumotlarni olgandan so'ng rasmni qanday chizish, rasm daftariga qanday joylashtirish kerakligi haqida avval nazariy bilim berilib, so'ngra uni amaliyotda qo'llash va bundan tashqari chizmoqchi bo'lgan narsani kuzatish, o'lchash hamda to'g'ri joylashtirish kerakligi haqida afsuski ko'proq ma'lumot berilmaydi. Rassomlar haqida, uni hayoti va ijodi, yaratgan asarlari haqida o'quvchilarga qisman bo'lsa ham ma'lumot



ko'rsatilmagan. Respublikamizning ko'plab maktablarida tasviriy san'at fani darslarini boshlang'ich sinflarda fan mutaxassisi o'tkazmaganligi sababli o'quvchilar "tasviriy san'at fani nimani o'rgatadi?", "ranglar haqida nimalar bilasiz?", "rasm chizishda nimalarga e'tibor beriladi?", "palitra nima?" kabi savollarga javob berishga qiynalishadi, o'quv qurollarini yaxshi bilishmaydi, chiziqlar turlari, shakllar qurish, bo'yoqlarni ishlatish, asosiy ranglarni ajratish, rasm chizishni ketma-ketlikda bajarish texnikasini, ya'ni rasmni qanday chizish kerakligi haqida ma'lumotga ega emasliklari kabi muammolarga duch kelishadi. Yuqoridagi kabi muammolarni bartaraf etish uchun avvalo, malakali bo'lgan tasviriy san'at fani o'qituvchilarini dars jarayonlariga jalb etish zarur. Shu jihatdan, bunday muammolarni bosqichma-bosqich hal etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatimizda tasviriy san'at fani ta'limini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish, o'qitishning interfaol va raqamli texnologiyalarini keng joriy etishga katta ahamiyat qaratilmoqda. «Ustoz-shogird» va badiiy ta'lim an'alarini saqlagan holda bugungi kundagi o'qitishning ilg'or usullarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga ijodiy ustaxonalar faoliyatini ko'proq tatbiq etish, tasviriy san'at yo'nalishlarida jumladan, dastgohli, grafika, mahobatli, miniatyura, haykaltaroshlik kabi yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan iste'dodli ijodkorlarni saralab olish va ularning estetik saviyasi hamda mahoratini yuksaltirish" alohida ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa o'z o'rnida o'quvchilarda tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalarni shakllantirishga qo'yiladigan didaktik talablarni takomillashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirish modeli va didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni taqozo etadi [1].

Maktablarda olib borilayotgan tasviriy san'at fani mashg'ulotlari bevosita o'quvchilarning estetik tarbiyasini tarkib toptirishda ahamiyatli bo'libgina qolmay, balki axloqiy tarbiyada ham salmoqli o'rinni egallaydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tasviriy san'at o'quv fani mashg'ulotlari o'quvchilarda milliy g'urur va iftixor, milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyada, do'stlik va o'zaro birodarlik g'oyalarini tarkib toptirishda katta kuchga egaligi bilan ahamiyatlidir. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi tasviriy san'at fani dasturlariga nazar solar ekanmiz, unda Vatanimizning buyuk tarixiy o'tmishi, mard-jasur vatandoshlarimizning mustaqilligimiz yo'lida olib borgan mardonavor kurash va qarashlari, jonajon diyorumizning betakror nafosatga boy tabiati, xalqparvar do'stligi g'oyalarini o'zida ifoda etuvchi tasviriy san'at asarlari bilan ta'minlanganligini shohidi bo'lamiz. Masalan, ona-tuproq, uchun kurash olib borgan buyuk ajdodlarimiz obrazlarini, O'zbekistonning betakror va maftunkor, bir-biridan go'zal manzaralarini ifodalovchi tasviriy san'atning nodir san'at asarlari mavjud. Ularni o'rganish barobarida o'quvchilar bevosita, tasviriy san'atning nazariy qonun va qoidalari bilan tanisha boradilar, yuqorida qayd qilingan mazmundagi amaliy rasmlar ishlaydilar, O'zbekistonning shirin-shakar va rang-barang mevalari, har turdagi gullaridan tuzilgan natyurmortlar rasmini ishlaydilar, natijada ularda jonajon Vatanimizga hamda xalqimizga nisbatan mehr-muhabbat, milliy g'urur va iftixor kabi ko'plab sifatlar shakllantiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tasviriy san'at fani albatta insoniyat va ularning hayotida o'z o'rniga egaligini hisobga olib, ushbu fanning faoliyat jarayonida kamchilarni bartaraf etib, yangilarni uyg'unlashtirish hamda zamonaviy metodlarni qo'llash muhim hisoblanadi. Bu jarayonlarni takomillashtirishda chet el andozalaridan ham foydalanish



faydaliroq hisoblanadi. Shuningdek, soha bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash ham ahamiyatlidir. Ularning yuqori salohiyatga ega bo'lishlari natijasida o'quvchilarning ta'lim sifati oshishi hamda ularning yuqori bilimga ega bo'lish ehtimoli ortadi. Ko'zlangan maqsadlar albatta, o'quvchilarning intellektual va badiiy salohiyatini oshirishlari hamda mustahkamlashlari uchun poydevordir.

References:

1. Bobonazarov S. "KOMPOZITSIYA MASHG 'ULOTLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MUHIM EKANLIGI" //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B6. – C. 11-14.
2. Sulaymonov A., Abdullayev N. Tasviriy san'at. 7-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2014. – 80 b.
3. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. – T.: "Fan", 2004. – 106 b.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2006. – 180 b.
5. Abdirasilov S. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi. T Ilm-Ziyo, 2011